

VII

O'. RASULOV

YAKKAXON QO'SHIQCHILIK

TOSHKENT

IX
R-25


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

O'LMAS RASULOV

YAKKAXON QO'SHIQCHILIK

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent – 2017

UO'K:784.1(072)

KBK:85.314ya7

R-25

R-25 O'lmas Rasulov. Yakka qo'shiqchilik. (O'quv qo'llanma).
—T.:«Barkamol fayz media», 2017, 180 bet.

ISBN 978-9943-5010-6-5

Ushbu o'quv qo'llanmada yakkaxon qo'shiqchilik pedagogikasi va ijrochiligining eng murakkab jarayonlarini puxta o'zlashtirishga qaratilgan ovoz mashqlari jamlangan. Unda milliy musiqiy bezaklar, ovozning o'zbekona tuslanishi va sadolanishi, ijroviy-ijodiy, ilmiy-nazariy tomonlarini ochib berish, ularni yangi avlodlar tomonidan ajdodlar merosi sifatida o'rganilishini ta'minlashga qaratilgan mulohazalar bildirilgan.

O'quv qo'llanma mamlakatimiz kasb-hunar va oliv ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilar, talabalar, mustaqil tadqiqotchilar, shuningdek, musiqi madaniyati bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

UO'K:784.1(072)

KBK:85.314ya7

Mas'ul muharrir:

Soibjon Begmatov – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

Mahmudjon Tojiboyev – O'zbekiston xalq hofizi;

Sherzod Pirmatov – O'zDSMI professori.

ISBN 978-9943-5010-6-5

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

KIRISH

"Barcha mashq va ohangni bir xilda chertish va kuylash shart emasdur, nedinkim, odamlarning barchasi bir xilda bo'lg'an ermaslar, ta'blari ham bir-biriga muvofiq ermas, ya'ni xalq muxtalifdurlar"¹.

Badiiy obrazlar, umuman, voqelikni ohanglar yordamida aniq ifodalay olish musiqa ilmining, jumladan yakkaxon qo'shiqchilik san'atining asosiy vazifalaridan biri. Ma'lumki, o'zbek musiqa san'atining ajralmas qismi bo'lagan milliy qo'shiqchilik san'ati juda qadim zamonlardan beri rivojlanib, yashnab, yasharib kelmoqda. Uning qonunlari murakkab va barqaror bo'lib, lahjaviy, hududiy jarayonlarni qamrab oladi. Shu bois, an'anaviy yakkaxonlikni o'rganish ham, avvalo, unga tarixiy yondashuvni, qolaversa, uning ilmiy-amaliy jihatlarini to'laqonli anglash, bilish va his etishni talab qiladi. Musiqa ilmi, ayniqsa, uning amaliyotining rivoji qator konferensiyalar, "Sharq taronalari" kabi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda o'z aksini topmoqda. Musiqaning boshqa sohalari singari an'anaviy qo'shiqchilikning ham bunday nufuzli enjumanlarda muhim o'rinn tutishining bir qater sabablari bor albatta. Eng asosiy sabablaridan biri, xilma-xil musiqiy shakl va janrlarning an'anaviy ijroga ta'siri, ya'ni an'anaviy ijro haqidagi ilmiy-nazariy sikrlarni umumlashtirishning yangi bosqichga ko'tarilib borayotgani kuzatiladi. Ta'kidlash lozimki, o'zbek musiqa san'atining jahon nafkor ommasi nazdidagi ahamiyati kun sayin oshib bormoqda.

Yakkaxon qo'shiqchilik amaliyotining barcha qirralari o'zida nazariy qoidalarni umumlashtirib, musiqa ilmining barcha sohalarini boyitib kelmoqda. Bu musiqani, xususan ijroni ongli idrok eta olishning natijalarini, tom ma'noda har tomonlama o'rganishning samarali mahsulidir.

¹ Kaykovus "Qobusnoma". Toshkent. O'qituvchi nashriyot matbaa uyi. 2011 yil. 148-bet.

Darqamijskiy o‘z o‘quvchisi V.Karmalnayaga yozgan xatlarining birida shunday degan ekan: ovoz to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zni ifodalay olishni xohlayman, chunki ijroning haqiqati aslida mana shunda deb hisoblayman.”²

An‘anaviy xonandalik bir qator uzlusiz rivojlanib boruvchi omillarga tayanadi: kuy, she‘r matnini puxta o‘rganish, ijro maqsadini imkon qadar to‘la ochib berish, ovoz yo‘nalishidagi ornementik qoidalarni aniq ifodalash ana shunday omillardandir. Milliy musiqiy bezaklar, ovozning o‘zbekona tuslanishi va sadolanishini ta‘minlash, ijro jarayonini to‘laligicha va alohida-alohida holda uni o‘rab turgan ijroviy-ijodiy, ilmiy-nazariy tomonlarini qiyosiy o‘rganish san’atkolar oldida turgan asosiy vazifalardan biri.

Ijroni qiyosiy o‘rganish, tahlil qilish, mohiyatini anglashda innovatsion vositalar, xususan ovozli yozuvlar va albatta ustozona jonli ijrolardan foydalanish talab etiladi.

XIX asrning oxiri, XX asrning 80-yillarida fonograf, gramplastinka yozuvlari, XX asrning 40-yillaridan bugungacha davom etib kelayotgan magnit tasmalaridagi va boshqa texnik vositalarda mavjud musiqiy asarlardan qiyosiy foydalanish, ularni ilmiy-nazariy jihatlarini boyitib borish, musiqa fani nazariyasi, jumladan amaliyoti o‘tmishini anglatuvchi, kelajagini belgilovchi ko‘zgudir, nazarimda.

Zero, biz ushbu qadimiy va zamonaviy vositalarda ustozona ijrolarda yozilgan xilma-xil talqinlarni ko‘ramiz. Ifodaviy vositalarni anglaysiz. O‘ziga xos ovoz va ohang munosabatlarini his etamiz, xullas, milliy qo‘shiqchilikning rivojlangan va rivojlanishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlaymiz. Bu esa o‘z navbatida, “Zamonaviy ijro” shaklida odat tusiga kirib borayotgan turli darajadagi asarlarni to‘g‘ri anglashimizni ta‘minlash bilan birga bunday ijro niqobi ostida urchib borayotgan, o‘zbek xalqi ma‘naviyatidan tashqrarida shakllangan yot musiqiy asarlarga ayniqsa, qo‘shiqlarga to‘g‘ri baho berish imkoniyatini beradi bizga... “Agar insonning qulog‘i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora-bora uning

badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma‘naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykov-skiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi”³.

Musiqa madaniyati, uning tarkibiy qismi bo‘lgan fikrlar, mulohazalar, ilmiy-amaliy tushunchalar zamirida rivojlanib boradi. Shuhhasiz, musiqa madaniyatini yuzaga chiqishida ijroning tutgan o‘rnini beqiyos. Musiqani ijrosiz tasavvur ham qilib bo‘lmaydi: an‘anaviy ijroning tub mohiyati milliylikda, milliylikning mohiyati xalqning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi ohanglarda. Ularni ba-diyy obraz darajasiga ko‘taruvchi musiqiy bezaklar, ohanglar, zarblar, tabiiyki, tovushlardir.

An‘anaviy yakkaxon qo‘shiqchilikning mazmunini bildiruvchi bu omillarga alohida e’tibor berish lozim. Bu jarayon vokal pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Haqiqiy ijrochi ham xalqona, ham oddiy, ham falsafiy ohanglar yordamida hayotiy obrazlar yarata oladigan san’atkor bo‘lsagina, uning har bir ijrosi musiqa madaniyatining yorqin sahifasiga aylanadi. Demak, ijro bu judi murakkab ayni vaqtida, jonli, ilmiy-amaliy jarayon. U tinimsiz yangilanib, o‘zgarib boradi. Haqiqiy ijro mahorat badiiy san’at namunasi, hunarning eng mukammal bosqichidir. Mohirona ijro san’ati bilan yo‘g‘rilgan har qanday musiqiy asar musiqa madaniyatining eng noyob ko‘rimishi, u voqelik, bayramidir. Ana shunday ijrolargina tabiiy, professional ijro jarayonini tashkil etadi. Musiqa san’ati amaliyoti va nazariyasining oltin pillapoyasi mana shunday ijro va ijrochilardir. Demak, ijrochilikning asosi-ijro, uning sifatini belgilovchi omil ham ijro. Ayni vaqtida, ijro tajribalari yig‘indisi o‘laroq, musiqa ilmi, nazariyasi, pedagogikasini qadimiy va yangi ohanglarning xilma-xil talqinlari bilan boyitadi. Shu bois, ijroni hech ikkilanmasdan jonli jarayon desa ham bo‘ladi. Mazkur jarayonni talabalarda to‘g‘ri,

² Очерки по методики теории и сольфеджио. Сборник статей. Музгиз, 1954 год.

³ I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat. 2008. 103-bet.

aniq shakllanishida ovoz mashqlari eng zarur va boshlang‘ich vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng mukammal soz-inson ovozi, degan gapni ko‘p takrorlaymiz. Qo‘sishq tinglayotganda, kuylayotganda, ayniqsa, uni o’rgatayotganda bu hikmatli so‘zning bejiz aytilmaganini anglaymiz. Bu so‘zlar har bir o‘qituvchining shioriga aylanishi kerak. Boshqa-chaga qilib aytganda, o‘qituvchi ovoz shakllantiruvchi zarur holatlar ko‘nikmalarni to‘g‘ri, aniq shakllanishni ta’minlovchi unsurlarga alohida e’tibor qilishi kerak. Darvoqe, biz ovozni eng mukammal soz dedik. Nazarimda, bu sozning bиринчи tori – ong, ikkinchi tori – ovoz, uchinchi tori – nafas, to‘rtinchi tori – talaffuz... An’anaviy qo‘sishqchilikda mavjud barcha jarayonlar mana shu “tor”larni sozlashga qaratilishi lozim. Ulug‘ allomalardan Abu Ali ibn Sino e’tirof etgan “Inson ovozi” deb atalmish muqaddas “cholg‘u”ning xonandalikdagi barcha ilmiy-nazariy qoidalar asosida sozlanishining ham ilk ibtidoiy omillaridan biri ham mashqlar-ovozi mashqlaridir.

Mashqlar nafaqat ovoz, balki talaba ongi, shuuri, xususan, estetik didining shakllanishida muhim vositadir.

San’at, ijod, ijro – bular estetikaning muhim qirralaridandir. Bo‘lg‘usi qo‘sishqchi mashqlarni bajarish jarayonida kuylashning barcha estetik, psixologik, badiiy jihatlarini his qilib borsagina pedagog o‘z maqsadlariga to‘laqonli yetgan bo‘ladi. Mashqlarga shunday bir tus berish kerakki, talaba go‘zallik va xunuklik, tubanlik va yuksaklik haqidagi tushunchalarni to‘g‘ri idrok eta olsin. Mazkur jarayon bo‘lg‘usi xonandada estetik did va tarbiyani shakllantirib boradi. Ma’lumki, ezgulik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan har qanday asar, jumladan musiqiy asar va mashqlar, talabada odob va axloq tushunchalarni rivojlantirib borish kerak. San’at – estetika, estetik didning eng to‘liq va mukammal ifodasi. Estetikaning bu kategoriyasi shaxs rivojining uyg‘unligi, ya’ni go‘zallikni yaratish, olijanob bo‘lish, erkin ijod qilishga o‘rgatadi, yaratuvchilik qobiliyatini erkin zohir bo‘lishini ta’minlaydi, talabani badiiy ijod namunalaridan zavqlantiradi. Badiiy ijod bilan shug‘ullanish, bu go‘zallikka intilish, oqibatda uni yaratish demakdir. Bu intilish

ijodkorni, ijrochini ma’nан go‘zal va odobli bo‘lishini talab qiladi. “Go‘zallik axloq-odobning tug‘ishgan singlisidir” degan edi, rus yozuvchisi Belinskiy...

Qissaдан hissa shuki, ovoz mashqlarini tanlayotganda, pedagog asosan, mana shu mezonlarni ham unutmasligi kerak. Maqomlardan, mumtoz musiqiy asarlardan, bastakorlar yaratgan klassik asar-lardan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ana shu mezon talabidagi badiiyatni istagancha topish mumkin.

Demak, ovoz mashqlarini ko‘proq o‘zbek xalq musiqa merosi asosida tanlash maqsadga muvofiq. Bunday mashqlar talabaning mamlakatimiz tarixiga bo‘lgan e’tiborini oshiradi kela-jagiga ishonch paydo qiladi.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixi, ajoyib ma’naviy merosi bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg‘usi, o‘tmishni qo‘msash emas, balki qadimiy tarixni, xalq yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarni keng o‘rganish va olib berish, ularni yangi avlodlar tomonidan ajdodlar merosi sifatida o‘rganishni ta’minalashdan iborat.

I-BOB

1.1. Muqaddima

Abu Nasr Forobiy musiqiy iqtidorni quyidagi uch bosqichga ajrata-di: g'ariza-insondagi sozga, ovozga bo'lgan moyillik, kuy tinglash, ijro etish qobiliyati; intuitsiya – his etish. Kuyni ruhiy holat sifatida idrok etish, o'rganish lozim. Sozanda, xonanda asarni ijro etayotganda qaysi parda yoki ohangda ekanligini, ularda qanday kuylash kerakligini o'ylab ham o'tirmaydi. Asar ijrochi qalbida yashab yetiladi. So'ng ma'lum tovushlar va ularning harakati sifatida shakllanadi. Intellekt – aql darajasi. Bu daraja shundan iboratki, unga erishgan ijrochi kim uchun qanday asar ijro etayotgani, uning tuzilishi, g'oyasi, shakl va mazmunini idroklashga qodir bo'ladi. Forobiy musiqiy asarni idrok etish va yaratish jarayonini musiqa ilmining eng mukammal bosqichi deb qaragan.

Badiiy obrazlar, umuman, voqelikni ohanglar yordamida yorqin ifodalay olish haqiqiy ijro va ijrochilikning ko'zgusidir. Ijro aslida juda murakkab jarayon. Ayniqsa, xalq ijrochisi derajasida bo'lish uchun o'sha xalq ohanglarida mavjud barcha ta'sirchan ijroviy omillarni o'z shuuri va qalbiga to'la singdirib olishni talab etadi. Ijrochining ijroda ishtirok eta-digan barcha a'zolari o'z-o'zidan erkin harakat qilishi kerak. Bunda a'zolar harakati ravon, chirolyi bo'lishi talab etiladi. Haqiqiy xonanda o'z ovozini inson qalbining oltin kalitiga aylantira olishi lozim. Uni eshitgan har qanday kishi, o'zini ichidagi "men"ni bo'ysundira olgandagina ijro va ijrochi o'z maqsadiga yetgan bo'ladi. Demak, parda, ohanglarni mehr-shafqat,adolat,ezgulikka xizmat qildira oladigan san'atkorgina haqiqiy sozanda yoki xonanda bo'la oladi. Ular badiiy yuksak musiqiy asarlarni inson ruhiga to'g'ri va mukammal yetkazadi. Musiqiy merosni ko'z qorachig'idek asraydi, ijro etadi.

An'anaviy qo'shiqchilik o'rgatish jarayonida o'zbek maqomlari va mumtoz musiqasida mavjud "zamzama", "hang"lardan unumli

foydalanish bo'lg'usi xonandani ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan muqaddas musiqiy merosga yaqinlashtiradi.

Talabaning eshitish qobiliyati, ta'bi, didini rivojlantirishda hang va zamzamalardan tashqari ovoz mashqlarining ham ahamiyati be-qiyos. Yaxshi qo'shiqchi nozik ta'b, nukta fahm, ya'ni o'z ovozining sozandasasi, asardagi voqelikni yarata oluvchi aktyor darajasida bo'la olishi kerak. Shu bois, ovoz mashqlari uchun ijro texnikasi bilan birga uning botiniy, zohiriylarini boyitishga xizmat qiluvchi ohanglarni tanlash maqsadga muvofiq. Mashqlardan ko'zlangan maqsad talaffuz aniqligi, ohang sofligi, nafasdan unumli foydalanish, badiiy didni shakllantirish, musiqiy bo'yoqlardan to'g'ri foydalanish, hissiyotni kuchaytirish, frazirovka (jumlani to'g'ri ifodalash), asar shakliga putur etkazmaslik, ohang va matnga ehtiyyotkorlik bilan yondashish, bularning samarasini o'laroq yoqimli, nafis, ifodali, mazmunli, bir so'z bilan aytganda, professional kuylashga erishishdan iborat. An'anaviy xonandalikda ovoz mashqlaridan nihoyatda kam, ba'zan samarasiz foydalanish mazkur soha pedagoglarining eng noqis tomonlariдан biridir. Ustoz xonandalarda so'zsiz aytiladigan maqom va katta ashula ohanglari ovoz mashqlari o'rnni bosgan. Ijroning dastlabki jurnyonlarida ular ovozning pastki registrida ijro etishga mo'ljallangan maqom va katta ashulular ohanglaridan samarali foydalanishgan. Bu jarayon jonli tilda "ovoq qizdirish", "ovoq yuritish" deb nomlangan. Turli xorijiy musiqiy oqimlarning to'xtovsiz kirib kelayotgani, yosh avlodning tafakkuridan ma'lum darajada milliy musiqiy bezaklar, ohanglar, umuman milliy musiqaga nisbatan didini sayozlashtirmoqda. Bu esa o'z navbatida milliy ruhdagi ovoz mashqlari yaratishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. "... ilmi guftor (bayon qilish) uchga bo'linadi:

1. Ovoz hosil qila olish;
2. Talaffuz eta olish;
3. So'z paydo qila olish".⁴

Ta'kidlash lozimki, bu omillarning har biri alohida-alohida qobiliyat, iqtidor talab etadi. Ularning har biri talaffuz uchun o'ta muhimdir.

⁴ Бобо Афзалиддин Кошоний 1267 туғилган. "Жовидоннома" асаридан.

Tabiiyki, bu jarayonda G‘arb tajribasining eng yaxshi namunalari dan ham bu jarayonda foydalanish tavsiya etiladi.

Mashqlar yordamida talaba bilan ishlash uning ovoz vositasi bilan yangi timsol yaratish va barcha ijroviy jarayonni o‘sha timsolga bo‘ysundirish demakdir. An‘anaviy xonandalikda mashqlarning shunchaki, nomigagina bajarilishi ashulachilikda ovozni to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirishning zavolidir. Zero, yakkaxon qo‘schiqchilik pedagogikasi va ijrochiligining eng murakkab jarayonlarini puxta o‘zlashtirishning kaliti ham aynan ovoz mashqlaridir. Ularda kuylashning barcha qiyinchiliklarini oson hal qilishda o‘z ovoziga ega bo‘lish, tovushni toza, asar talabi darajasida shakllantirish, nafasni isrof qilmaslik – tejash, ijro jarayonida qichqirmaslik, ovozni muloyim va yengil harakatlantirish, registrlarni silliq bo‘lishi, nafasdan to‘g‘ri, unumli foydalanish, milliy ijroga xos musiqiy bezaklar ni professional talqin qilishga qaratiladi. Buning uchun mashqlar rang-barang, turli o‘lchov va usullarda bo‘lishi lozim. Mashqlar jarayonida diafragma faoliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Unli va undosh tovushlarning tiniq sadolanishini ta’minlash talab etiladi.

Ustozlar orasida ashulachilikda zarur bo‘lgan tabiiylik va halollik xususiyatlari alohida e’tirof etilgan. O‘z davrida ular katta izdihomlarda ashula aytishdan, undan oldin ikki rakat namoz o‘qishgan. Ruhan va jismonan poklanganlar. O‘zbekiston xalq hofizi, marhum Quvondiq Iskandarov “ashulachining tomog‘i, o‘pkasi, oshqozoni toza bo‘lishi kerak”, - der edilar. Demak, bo‘lg‘usi xonandalarni parhezkorlikka, luqmai haromdan yiroq yurishga o‘rgatib borish kerak. Bo‘lajak hofizlarning xotirasini rivojlantirishda mumtoz shoirlarning sara baytlarini yod olishga ustozlar alohida e’tibor qaratishgan. O‘zbekiston xalq artisti marhum, Hojixon Boltayev “ashulachi kamida ming, bir yarim ming bayt bilishi kerak” degan iborani ko‘p takrorlar edi.

Talabalarga mashq berish jarayonida mashqlarning shaklan va mazmunan milliy bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish lozim. Har qanday odamning xazinasi-uning qalbi. Xazinaga har qanday narsani joylashtirib bo‘lmaydi...

Ovoz mashqlari o‘qitish, o‘rganish jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Har bir darsda, har qanday asardan oldin talabaga o‘sha asar ohangiga mos mashqlar berib boriladi. Bu jarayonda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini ham inobatga olish muhimdir. Talabalar orasida “s”, “z”, “r” tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila olmaydiganlar ham uchrab turadi. Bundan tashqari, aksar unli tovushlarning turli shevalarga xos, xilma-xil ayttilishi hollari ham yo‘q emas. Shu bois, ovoz mashqlari jarayonida qo‘llaniladigan nota nomlari bilan birga undosh va unli tovushlar birikmalarini keng qo‘llash tavsiya etiladi.

Ma’lumki, G‘arb musiqasidagi tovushlarning nomi ma’lum bir ilohiy so‘zlarning ilk bo‘g‘inlaridan olingan, shu ma’noda biz ham tilimizda mavjud maqom atamalarining tovush birikmalaridan foydalanaks yomon bo‘lmas edi. Buni men quyidagicha tasavvur qilaman. “Ro” – Rost maqomining birinchi ikki harfi. Rost – haq, to‘g‘rilik demakdir. “Mu” – Muhayyar so‘zining birinchi bo‘g‘ini, muhayyar – hayratlanmoq. “Na” – Navo so‘zining birinchi bo‘g‘ini, Navo – uchinchi maqomning nomi. “Cho” – Chorgoh so‘zining bi-rinchi ikki tovushi, Chorgoh – Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llarini to‘rtinchisi, Xorazm va Buxoro maqomlarining sho‘balaridan biri. “Se” – Segoh so‘zining birinchi bo‘g‘ini, Segoh – maqomlardan biri-ning nomi. “Xo” – Xoro so‘zining birinchi bo‘g‘ini. Segoh maqomi sho‘balaridan birining nomi. “Ta” – Tarona, maqomlar taronalari...

Xullas, ovoz mashqlarida ovozxonlik pedagogikasining barcha muammolari, yutuqlari aks etgandagina u samarali bo‘ladi. Demak, tozalik, tiniqlik kabi omillar, pardani his etish, soz va ovozni eshitish, ulardagagi uyg‘unlikni idrok etish – bular birlamchi omillardandir.

Ovoz mashqlarining milliy sozlar jo‘rligida amalga oshirilgani maqsadga muvosifqidir. Biroq, turli shakl va darajadagi g‘arbona musiqalarning keng iste’molga aylanib borayotganini inobatga olib, G‘arb vokal tajribasidan kelib chiqib, ularni dastlabki jarayonda fortepiano jo‘rligida amalga oshirish ham foydadan xoli emas. Milliy sozlarda mashqlarni bajarish jarayonida talaba ovozining qaysi cholg‘uga mos kelishiga e’tibor berish kerak. Biz ovoz mashqlarini asosan tanbur,

dutor, g'ijjak jo'rлигida amalga oshirishni talab etган bo'lardik. Zero, mazkur sozlarda milliy musiqiy bezaklarni aniq ifodalash mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi milliy xonanda tayyorlash jarayonida haqiqiy ovozning sozga, ayniqsa, tanbur, dutor, g'ijjak tovushiga bo'sunuvchan bo'lismeni e'tiborga olishi zarur.

Mashqlarda asardagi musiqiy tovushlarning aniq-tiniq sadolansi o'ta muhim omillardan biridir. Ta'kidlash lozimki, ovoz tusining sofligi orqaligina asarning ichki mazmun-mohiyatini to'laqonli olib berish mumkin. Ayniqsa, milliy qo'shiqlar ijrosidan oldin ulardagি musiqiy bezaklar, dinamik belgilarni, tovush tembrini barcha registrlarda bir-biriga imkon qadar yaqinlashtirish o'qituvchidan qancha ko'p mahorat talab etsa, bo'lg'usi hofizdan ham shuncha ko'p mashaqqat talab qiladi. O'z navbatida bu jarayon musiqiy tafakkur, ta'bni yangilovchi, rivojlantiruvchi omillarga yetaklaydigan parda, ovoz uyg'unligi tu-shunchalarini belgilaydigan badiiy, texnik ko'nikmalarni charxlovchi boshlang'ich vositalarning eng zaruridir. Ma'lumki, yakkaxon qo'shiqchilikda, umuman, og'zaki kasbiy xonandalikning barcha ko'rinishlarida artikulyatsiya birlamchi o'rinda turadi. Ko'p hollarda milliy qo'shiqlar ijrosida "a", "e"ga, "o", "u"ga yoki shunga o'xhash tovushlarga aylanish hollari tez-tez uchrab turadi. Bu holat ovozning o'ziga xos sharqona faziligidir. An'anaviy xonandalikni bunday holatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bunda lab, til, jag' harakatlarining o'ziga xos holatlarini to'g'ri topish talab qilinadi. Ovozning ichki qatlammi "falset"dan ham unumli foydalanish kerak. Bularsiz yakkaxon qo'shiqchilikda na pedagog, na talaba kerakli natijaga erisha oladi. Jarayonni amalga oshirishda Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Kommuna Ismoilova, Saodat Qobulova kabi hofizlarning ijrosidan keng foydalansa maqsadga muvofiq. Mashqlar kuyulanayotganda, talabaning tashqi holati – o'zini tutishi, yuz tuzilishidagi ifodalar, behuda tebranmaslik, boshni qimirlatmaslik, ortiqcha harakat va zo'riqishlarga yo'l qo'maslik lozim. Zero, u kelajakda sahnadagi shaxsga aylanishi, odamlar e'tiboridagi hayratga aylanishi hech gap emas. Yangi ashulaning paydo bo'lismeni – bayram. Yangi iqtidorli ashulachining paydo bo'lismeni – tarixiy voqeiylik aslida. Har bir yu-

tuqning zamirida mashaqqatli mehnat yotadi. Bo'lajak xonanda-talaba mashaqqatni odatga, odatni-go'zallikka aylantira olishi kerak. Tabiiyki, mashaqqatli mehnat o'rtamiyona xonanda uchun zararli bo'lismeni ham mumkin, undagi ijod uchqunlarini so'ndirishi ham mumkin. Haqiqiy xonandada esa, ushbu jarayon ijroni rivojlantiradi. Ta'kidlash lozimki, ba'zi san'atkorlar, jumladan qo'shiqchilar sahna madaniyatiga uncha e'tibor bermaydi, shu bois, ijro ta'sirchanligiga deyarli erisha olmaydi. Bu tanasi, asablarini boshqarolmaslik, e'tiborini nimaga, qay tomonga yo'naltirishligini bilmaslik kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Sahnada o'zini tuta olish – bu nafaqat estetik jarayon, balki tinglovchining badiiy asarga qo'shiqchiga munosabatini shakllantiruvchi vositalarning eng asosiysidir. Professor Sherzod Pirmatovning ta'kidlashicha, "tana cholg'u sozi, qo'shiqchi esa cholg'uchidir". Qo'l, oyoq, tana, yuzdagи emotsiyonal ko'rinishlar albatta tomoshabin nazarida bo'ladi. Bularsiz ba'zan asar, hattoki butun boshli bir konsert ham muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Sahna ijodkori uchun tomoshabin-ko'zgu, ko'zgu bo'lganda ham eng muqaddas ko'zgu. Ustoz xonandalarning ta'kidlashicha, ular xoh sahnada, xoh bazmlarda qo'shiq ijro qilayotganlarida odamlar orasidan o'ta shinavanda bir kishini topib, ijro davomida butun e'tiborini unga qaratar ekan. Demak, qo'shiqchi o'zini sahnada erkin his qila olishi lozim. Tuyg'ularni ifodalashda, tananing ortiqcha harakatidan tiyilishi talab etiladi. Aks holda, tinglovchining san'atkor haqidagi fikri salbiy tomonga o'garadi. Sahna madaniyatini yaxshi bilmagan qo'shiqchi, bamisol, sozlanmagan cholg'u sozida chiroyli kuy chalishga behuda intilayotgan sozanda kabidir. Demak, qo'shiqchi uchun ikki toifa sozlarning ovozga, ruhiy holatga jo'rлиgi mavjud. Birinchisi, albatta, musiqiy sozlar, ikkinchisi, uning ovozi va qo'li, yuzi, ko'zi, tanasi. Yana bir toifa soz – bu tomoshabinning qo'shiqchiga bo'lgan ruhiy va ma'naviy munosabati. Ushbu sozlarga o'z ovozi va qalbin ni sozlay olgan qo'shiqchi. Nihoyatda mukammal, badiiy-ma'naviy barkamollik kasb etadiki, bu barkamollik uni yakkaxon qo'shiqchilikning yuksakliklarga eltvuvchi oltin pillapoyalarda, qiynalmasdan, ikkilanmasdan javlon urishini ta'minlaydi....

Ovoz mashqlariga – nafas, talaffuz, ma'lum darajada tana plastikasi bilan shug'ullanishning dastlabki ko'rinishi sifatida ham qaralishi kerak.

Qo'shiqchilik taqlid asosiga qurilgan jarayon emas. U tinimsiz mashqlar, mashaqqatli mehnat, ijodga aniq va to'g'ri yondashuv zamirida shakllantiriluvchi sohadir. Shu bois, ovoz mashqlarini bajarish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim.

- Talaba o'zida, ovozida, tanasida noqulaylik sezmasin;
- Yelkalarini to'g'ri tutish – bu yaxshi nafas olish, ko'krak titratgichlaridan unumli foydalanishni ta'minlaydi. Boshni, bo'yinni to'g'ri tutish bu tomoq, hiqildoq muskullari erkinligi, ovoz tabiiyligini ta'minlaydi: qo'shiqchining yuzi, ko'zi mashq jarayonida soxtalikdan xoli bo'lsin, qo'llar ikki yoqqa tushirilgan, erkin holatda bo'lsin...

Yakkaxon qo'shiqchilik fanidan dars berayotgan o'qituvchilar o'z talabalarini yuqoridaq tavsiyalarga tayangan holda, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda "So'z chamanining bulbullari" qilib tarbiyalamog'lari lozim.

Muhtaram o'quvchi mening bu izlanishlarim aks etgan qo'lin-gizdagi qo'llanma milliy yakkaxon qo'shiqchilikni rivojlantirishdagi ilk qadamlardan biri albatta. Tabiiyki, qo'llanma nuqsonlardan xoli emas. Ushbu qo'llanma pedagog xonandalar va talabalarning faoliyatida ozgina bo'lsa ham ijobiy samara bersa, men o'zimni baxtiyor his qilgan bo'laman.

Mazkur o'quv qo'llanma o'quv rejasiga asosan yakka o'quv mashg'ulotda zamonaviy modul dasturi (**module syllabus**) asosida shakllanadi.

Kursning tematik tarkibi va mazmuni

| Mavzu | Amaliy (yakka) | Mustaqil ish |
|---|-------------------|-----------------|
| 1-semestr | | |
| Yakka ijroning nazariy asoslari va xususiyatlari: tovush hosil qilish va ohangdoshlik | 4 | 1 |

| | | |
|---|-----------|-----------|
| Asar matnini to'g'ri talaffuz etish – diksiya | 4 | 1 |
| Asar mazmuniga mos badiiy-musiqiy ijro etish ko'nikmasi. | 2 | 1 |
| O'zining shaxsiy qobiliyati, iste'dodidan unumli foydalanish va rivojlantirish | 4 | 2 |
| Ritmni his etish, dinamika, frazirovka | 4 | 2 |
| Ijroni jo'rnavoz bilan uyg'unlantirish | 4 | 2 |
| Konsert ijrochiligi repertuaridan axloqiy-ma'naviy hamda vatanparvarlik tarbiyasida foydalanish | 2 | 1 |
| Hududiylar (folklor) qo'shiqlari ijrochiligi | 2 | 1 |
| An'anaviy bastakorlar ijodidan namumalar ijro etish | 4 | 2 |
| Mumtoz ashulalar, katta ashula ijrochiligi | 2 | 1 |
| Maqom sho'balaridan namunalarni ijro etish | 4 | 2 |
| 2-semestr bo'yicha jami | 36 | 16 |

Izoh: zamonaviy modul shaklidagi tizimda keltirilgan kursning tematik tarkibiy mavzulari barcha semestrlar davomida talabalarga beriladigan tahminiy asarlar ijrosining to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi.

Talabaning iqtidoridan kelib chiqqan holda taxminiy dasturga quydagi janrdagi asarlardan namunalar kiritish mumkin:

1. Bastakorlar asarlari namunalaridan;
2. Xorazm dostonchiligi ashulalaridan;
3. Katta ashula namunalaridan;
4. Maqom sho'balaridan namunalar.

1.2 LAD HAQIDA

Ovoz mashqlarini bajarish jarayonida undagi pardalarning vazifasi, harakatlariga alohida e'tibor berish kerak. Boshqa xalqlar musiqasidagi kabi o'zbek mumtoz musiqasida ham tovushlar musiqiy asar talabiga ko'ra bir necha xil vazifani bajaradi. Masalan, Buzruk maqomining Saraxborida "do" pardasi qisiq sadolanadi va tezkorlik bilan yuqori pardalarga intiladi. Rost maqomining Saraxborida aynan shu parda bir xil harakatda ko'proq sadolanadi. Rost pardasidagi "do" tovushi Buzruk Saraxboridagi "do" pardasiga qaraganda sekinroq harakat qiladi. Asarning boshlanishidayoq "do" pardasi Saraxborning tayanch pardasi sifatida o'zini namoyon etadi. Shu va shunga o'xshagan holatlar sababli o'zbek musiqasini Yevropacha latlarda ifoda etish ancha noqulayliklar tug'diradi. Umuman, o'zbek mumtoz musiqasida lad so'zini ishlatish unchilik to'g'ri emas. Biroq, mumtoz musiqiy ohanglarni tashkil etuvchi tovushlar mutanosibligini tushuntirishning boshqa yo'li hozircha deyarli topilmaganligi sababli g'arbona lad ta'limotidan foydalanishga majburmiz.

Hozirgi kunda lad tushunchasi ma'lum bir ta'limotni anglatuvchi tovushlar yig'indisi demakdir. Lad – ruscha "ladit", ya'ni "mutanosiblashtirmoq" demakdir. U ilk bor cherkov musiqasida keng qo'llanilgan. G'arbda lad tushunchasiga muqobil o'laroq "modal", "tonal" so'zları ishlatiladiki, ular beqaror, ma'lum bir tonliklarga bo'y sunuvchi tovushlar demakdir.

Xalq musiqasini g'arbona "lad" yoki "tonliklar" asosida o'rganish ancha murakkab va noqulaydir. Lekin bu jarayonning foydali tomonlari ham yo'q emas, albatta. Ma'lumki, musiqa, ayniqsa ijrochilik joni jarayon. Undagi har bir ohang toza, tiniq, beg'ubor bo'lishi kerak. Badiiy matnda qattiq, yumshoq unli va undosh tovushlarning talafuziga qanday yondashilsa, musiqiy matnda ton va yarim tonlar tozaligiga ham shunday e'tibor berishimiz kerak. Zero, lad harakatdagi tovushlarning bir-biriga muvofiq badiiy tartiboti, tarkibotidir. Aytaylik, bir kuya yuzlab tovushlar ishtirok etadi. Ammo ular bir-biriga bog'liq holda goh pastga, goh yuqoriga deyarli doim harakatlanib

turadi. Ohang, kuy bu harakat demakdir. Yeru osmonlar va ularning o'rtasida mavjud eng kichik zarradan koinotgacha bo'lgan barcha narsalar o'z vazifasiga ega bo'lgani kabi lad ham unga asoslanib paydo qilingan. Paydo qilinajak har bir kuya ishtirok etuvchi tovush "nag'ma"larning ham o'z vazifalari borki, bu vazifalar ularning harakatida namoyon bo'ladi. Shu bois, kuyuni ko'p olimlar harakat deb ta'riflaydi. Va bu harakatlarni quyidagicha e'tirof etishadi:

- Tovushlarning bosqichma-bosqich harakati. Bu harakat barcha xalqlar musiqasiga tegishli bo'lganligi uchun "universaliy" deb ataladi;
- Tovushlarning gorizontal harakati – tovushning bir joyda harakatlanishi;
- Tovushlarning sakrama harakati. Kuy davomida uchraydigan sakramalarda, sekvensiyalarda namoyon bo'ladi. O'zbek mumtoz musiqasida sakramalar ikki, uch, to'rt parda oralig'ida bo'ladi.
- Tovushlarning o'ta lirik, kuychan harakati. Bu harakatni mumtoz musiqada amalga oshirish uchun "o'rab chalish", "bezab chalish" kabi xalqona ijro texnikasidan keng foydalilanildi. Ustozlar bu jarayoni "zamzama", "gulpartav", "gulrez", "gulborg", "qochirim" kabi xalqona musiqiy atamalar bilan ifodalashadi;
- Tovushlarning "titratma" yoki "tebranma" harakati: bizning musiqamizda bu jarayon "molish"ni eslatadi.

Musiqiy merosimizda mavjud har bir maqomni "advor", "lad" deb atash mumkin. Masalan, dugoh maqomining ilk xatlari dugoh tovushqatori yoki ladi asosida sadolanadi. Bu lad to'qqiz tovushdan iborat. Mo'tabar musiqiy risolalardagi parda, maqom, doira atamalari "lad" so'zining muqobili o'laroq, lad so'zidan kengroq ma'nolarni anglatadi. Tabiiyki, bu odad Shashmaqom tizimida ham foydalilanigan va alohida atamalar bilan belgilangan. Shashmaqomda oltita parda tizimi mavjud. Demak, har bir maqomning nomi ma'lum bir parda tizimini anglatadi. Maqomotda bunday parda tizimlari oltita: "Rost", "Buzruk", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq". Maqom qismlarining tarkibiy bo'laklarga – daslaski, kuy jumlalarga qarab bo'linishi ham ko'p uchraydi. Bunda ladning nomi "usul" nomi bilan birga aytildi.

Masalan: Tasnifi Segoh, Muxammasi Iroq... bu atamalarda Tasnif, Muxammas – usullarning nomi, Segoh, Iroq esa parda birliklari “advor” yoki “lad”ning nomidir. Bunday nomlanishlar o‘z navbatida har bir maqomning, ya’ni “lad”ning o‘ziga xos tomonlarini, aynan o‘sha maqom xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’riflash demakdir. Shu o‘rinda Navo maqomi haqida to‘laroq ma’lumot berishni lozim topdik.

Musiqiy bilimgohlarda ta’lim oladigan talabalar dasturining zalvorli qismini Navo maqomiga kiruvchi asarlar, Navo maqomi asosida yaratilgan ashulalar tashkil etadi. Bundan tashqari, Navo ohanglari hududiy, an’anaviy ijrochilikning ham ko‘rkiga aylanib ulgurgan...

Navo so‘zining ma’nosi juda keng. U “kuy”, “kuy yo‘li” maqomlar tarkibidagi maqomning nomidir. Bir jihatdan Navo “musiqiy” so‘ziga ma’nodosh. Bir nozik nuqtaga e’tibor qilaylik. Gap shundaki, musiqiy so‘zi yunoncha bo‘lib, yunon madaniyatida “kuy”, umuman, nafis san’atlar – “musiqa”, “she’riyat”, “raqs” ma’nolarini anglatgan. ya’ni ohang, she’r, raqs parilari ismiga oid tushuncha. Musiqaning arabcha nomi, ilmiy risolalarda “alhon” (birligi lahn) tarzida ifodalandan. Bu yunoncha “melos” (birligi melodiya) tushunchasiga mos keladi. Aksar mutafakkirlar ning musiqiy risolalarida ham alhon – kuy so‘zining ko‘pligi sifatida keladi. Najmiddin Kavkabiyl “alhon”ga ta’rif berar ekan, uni quyidagi cha tasniflaydi: alhonul jirmiy, “oliy nav”, “mukammal kuy”; alhonul bositiy – “o‘rta nav”, “yoyiq kuy”; alxon-ul xattiy – “oddiy kuylar”. Bu yerda kuy o‘rnida bemalol Navo atamasidan foydalanish ham mumkin. Chunki u kuylar, nafis san’atlar ko‘pligini anglatuvchi tushunchadir. Bu atamada musiqa va she’riyat uyg‘unligi o‘zining yorqin ifodasini topgan. Nazarimizda, Hazrat Alisher Navoiyning tahallusi negizidagi “navo” so‘zi nafis san’atlar uyg‘unligi bilan birga haqiqat yo‘lini anglatayotgandek, go‘yo.

Ajam xalqlarida “navo” so‘zi, arab so‘zidagi “alhon” dan ko‘ra kengroq ma’no kasb etadi. Bu so‘z musiqiy tarafdan “ohang”, “maqom” ma’nosini anglatsa, ma’naviy, ruhiy tomondan – yo‘l-oddiy yo‘l emas, tariqat yo‘lini anglatadi. Muhimi, inson hayotida bu musiqiy va ma’naviy yo‘llar uning kamolotida ustivor ahamiyat kasb eta oladi. Bu holatni Yusuf Xos Hojib shunday e’tirof etadi:

“Dunyodan bexabar qalbi benavo,
Na o‘luk, na tirik, dardi bedavo”.

XVI asrda yashab o‘tgan Abdulqodir Marog‘iy ta’riflagan maqomlar orasida “Navo”ning tilga olinishi ham bejiz emas. “Ushshoq”, “Navo” va “Busalik”, “Advor”larning ta’sir kuchi, mardlik va shioat uyg‘otadi. Navo ohanglari turkiy xalqlarning tabiatiga mosdir⁵.

Navo maqomi va atamasiga Darvesh Ali Changiy ham alohida e’tibor qaratgan. Uning ta’kidlashicha, Navo maqomi Hazrati Dovud alayhissalomdan qolgan. “Naqldurki, - deydi, Darvesh Ali Changiy, -qachon Hazrati Dovud lahn qilsalar, muborak halqumlaridan yet mish xil ohang chiqar emish. Qushlar, vahshiylar – behush bo‘lar va yig‘lar emishlar. O‘sha maqom “Navo” bo‘lgan”.⁶

Maqomot tarkibiga kiruvchi barcha maqomlarning xususiyatlari, ijrosi, parda tizimi, doira usuli, ichki va tashqi tartibotlari haqidagi ma’lumotlarni to‘liq tarzda berish tadqiqotimiz maqsadiga kirma ganligi uchun, yuqorida ko‘rsatilgan sabablar bois, Navo maqomi haqidagi tushunchalarni berish bilan kifoyalandik.

Ovoz mashqlarini bajarish jarayonida maqomlarda mavjud “hang”lar, zamzamalardan unumli foydalanish, bo‘lg‘usi xonandani akademik ijroga yaqinlashtiradi. Bunday atamani biz faqat G‘arb kompozitorlari asarlariring yuqori darajadagi ijrolariga nisbatan qo‘llaymiz, ko‘p hollarda. Ana shunday ijrolar silsilasini “akademizm” deb ataymiz. Unutmaslik kerakki, mumtoz musiqiy asarlar ijrosida ham akademizm mavjud. Bu akademizm milliy ohanglarimizning to‘laqonli ijrosi asosida vujudga keladi.

Musiqashunos olim D.Asafev ta’kidlaganidek, “Akademizm osmondan tushgan narsa emas, faqat o‘z zamonida ayni holda xalq ijodiyoti zamirida paydo bo‘lib, ana shu ijrochilik yuqori darajaga ko‘tarilganda yuzaga keladi”.

⁵ Maqosid-ul alhon. Tehron. 1966 yil. 111-bet.

⁶ Risolai musiqiy. O‘zR FA inv.468. 10-bet.

1.3 LABLANGAN TOVUSH “ME” YORDAMIDA OVOZ REGISTRINI RIVOJLANTIRISH

Mashq tabiiy major tovush qatorida berilgan. Bizningcha, mashqni dastlab fortepiano jo'rлигida bajarish ma'qulroq. Talabalarning turli musiqiy oqimlarga ergashib ketayotganligi bizni shunday qilishga majbur qiladi. Ovoz va parda munosabatlari yaxshilangach, mashqni milliy sozlarda, xususan, tanbur, dutor, g'ijjak sozlarida bajarilsa mashg'ulot yaxshi natija berishi mumkin. Mashq bajarilayotganda ovoz boyqlamlarining harakati yordamida har xil milliy bezaklarni amalga oshirilsa yaxshi bo'lardi. Bu jarayonda talabaga nafasdan unumli foydalanish, uni tejash ko'nikmalari singdirib boriladi.

1-mashq

1.4 UNLI TOVUSHLAR USTIDA ISHLASH

Ma'lumki, xalq musiqasini boyituvchi, undagi ohanglarning xalqonaligini ta'minlovchi omil musiqiy bezaklardir. Ular asosan unli tovushlar yordamida amalga oshiriladi. Mashqni bajarish jarayonida unli tovushlarning tiniq sadolanishi, musiqiy bezaklarning aniq ifodalanishi talab etiladi. Til, jag', halqum, tilchak kabi ovoz shakllantirishda ishtirok etadigan a'zolarning to'g'ri harakatlanishiga, faolligiga alohida e'tibor berish kerak. Mashqni tanbur jo'rлигida kuylansa ham bo'laveradi.

2-mashq

Mazkur keltirilayotgan mashqlarda (3-8 gacha) pardalar tozaligi ustida ishlash, ushbu sakratma harakatlarda nafasni tejash va tilni qattiq tanglayga undosh tovushlar aniqligi darajasida tekkizish talab qilinadi.

3-mashq

A musical score for piano, showing two staves. The top staff uses a treble clef and the bottom staff uses a bass clef. Measures 11 and 12 are shown, featuring various note heads and rests.

A musical score for piano, showing two staves. The top staff uses a treble clef and the bottom staff uses a bass clef. The key signature is one flat. Measures 11 and 12 are shown, featuring eighth-note patterns primarily consisting of quarter note rests followed by eighth notes.

4-mashq

A musical staff in common time with a treble clef. It consists of eight vertical stems, each ending in an eighth note. The notes start at a low pitch on the first line, move up to middle C on the second line, then continue up through D, E, F, G, A, and B, before returning down to middle C on the second line.

A blank musical staff consisting of five horizontal lines and four spaces, starting with a treble clef at the top.

A musical score page showing measures 1 through 10. The key signature changes from A major (no sharps or flats) to E major (one sharp) at measure 5. Measures 1-4 are in A major. Measures 5-8 are in E major. Measures 9-10 return to A major.

A blank musical staff consisting of five horizontal lines and four spaces, starting with a clef.

A musical staff consisting of five horizontal lines and four spaces. It features a clef symbol at the beginning, followed by a key signature of one sharp (F#). The first measure contains two eighth notes. The second measure contains three eighth notes. The third measure contains two eighth notes and two sixteenth notes. The fourth measure contains two eighth notes and two sixteenth notes. The fifth measure contains two eighth notes and two sixteenth notes.

5-mashq

A musical staff consisting of five horizontal lines and four spaces. The first note is a sharp sign (F#) positioned above the top line. Following this are several groups of notes: a pair of eighth notes (B and A), a pair of sixteenth notes (D and C), a pair of eighth notes (E and D), a pair of sixteenth notes (G and F), another pair of eighth notes (B and A), and finally a pair of sixteenth notes (D and C). The notes are connected by vertical stems.

